

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA,
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKATSIYA
TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI**

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

MENEJMENT VA MARKETING KAFEDRASI

KURS ISHI

Iqtisodiy tahlil

Guruh: 120-11 Mo'
Bajardi: Aliyev Ilhom
Qabul qildi: Tursunov Sherzod

Toshkent 2014

MUNDARIJA:

I. Kirish.....	3
II. Asosiy qism	
1. Iqtisodiy tahlilning mohiyati va ahamiyati.....	5
2. Iqtisodiy tahlilning o'ziga xos xususiyatlari.....	9
3. Korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlari va tahlili.....	13
4. Korxona zararsizlik tahlili.....	25
III. Xulosa.....	29
IV. Foydalanilgan adabiyotlar.....	30

KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga o'tish hozirgi davrning asosiy vazifasidir. O'ta dolzarb deb hisoblangan mazkur vazifa aholining moddiy va madaniy turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgan ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishni, uning samaradorligini hamda mehnat unumdorligini oshirishni, fan – texnika taraqqiyotini jadallashtirishni, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida ish sifatini yaxshilashni taqozo etadi.

Bu masalalarni hal qilish jarayonida muayyan mexanizmlar qo'llaniladi. Ulardan biri xo'jalik yurituvshi sub'yektlarning moliya – xo'jalik faoliyatini muntazam ravishda tahlil qilish mexanizmidir.

Tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyati, hisob-kitoblarning puxtaligiga, pul oqimlarining oqilona boshqarilishiga, iqtisodiy masalalardagi qarorlarning to'g'ri va o'z vaqtida qabul qilinishiga hamda iqtisodiy tahlilning sifatli tashkil etilishiga uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, bozorni to'g'ri o'rganishda, hamkorlarning moliyaviy ishonchliligini bila olishda, o'zaro hisob-kitob ishlarida yutkazib qo'ymaslik va boyliklardan o'rinli foydalana olishda kompleks iqtisodiy tahlilning natijalariga asoslanib, boshqaruv qarorlarini belgilash, foyda olishning zaruriy sharti ekanligi tajribada bir necha bor isbotlangan.

Korxonalarining iqtisodiy holatini tahlil qilish, korxona moliyaviy samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Korxonalarining iqtisodiy holatini tahlil qilish korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasini aniqlashga yordam beradi, foydalanilmagan resurslarni aniqlab korxonalarining kelgusida rivojlanishi, ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkning turli shaxslarga mansubligi ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishda erkin raqobat hukmronligiga asos bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, har bir korxona va firmaning yashovchanligini u o'zini o'zi ta'minlashiga bog'liq qilib qo'yadi. Bu jarayonda muvaffaqiyatga tahlilni to'g'ri tashkil qilish orqaligina erishish mumkin.

Shunday qilib, bozor iqtisodiyotiga o'tilishi munosabati bilan muayyan masalalarni, xususan, mavjud iqtisodiy masalalardan oqilona foydalanish, ish sifatini, asosiy fondlardan foydalanishning samaradorlik darajasini, mehnat unumdorligini keskin oshirish, respublika aholisining oziq – ovqat mahsulotlari va boshqa tovarlarga bo'lgan talabini chuqurroq o'rganish, iqtisodiy tejamkorlikni kuchaytirish masalalarini ommaviy hal qilish lozim. Maqsadga erishish uchun avvalo, har bir korxona va bo'lim faoliyatini atroflicha, chuqur tahliliga asoslanib, ichki xo'jalik imkoniyatlaridan tobora unumliroq foydalanishga, kamroq harajat qilib, yuqori natijalarga erishishga, ilg'or tajribalarni tatbiq etishga, ilg'orlarning

tashabbuslarini ommalashtirishga alohida e'tibor berish, sifat ko'rsatkichlarini muttasil yaxshilab borish kerak.

Iqtisodiy tahlil investitsiya loyihasini umumjamiyat manfaati nuqtai nazaridan o'rganadi. Iqtisodiy tahlil loyihalarga kengroq yondashib, daromad va harajatlarni baholashda moliyaviy tahlildan farq qiladi. Umuman bu tahlilda daromadlar-harajatlar oqimini baholashda moliyaviy tahlilga qaraganda ikki katta o'zgarishga yo'l qo'yiladi.

Birinchidan, investitsiya loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqaruvchilar olgan subsidiyalar soliq to'lovchilarning yo'qotishlari bilan qoplanib ketsa ayrim shaxslardan tushadigan to'lovlar umummilliy darajada resurslar miqdorini o'zgartirmaydi. Ikkinchidan, bir loyihani amalga oshirish ikkinchi bir loyiha uchun resurslar miqdorini kamayishiga olib kelishi mumkin. Bu holda umumjamiyat nuqtai nazaridan iqtisodiy daromad moliyaviy daromaddan past bo'ladi va buni loyiha bo'yicha ish boshlashdan oldin hisobga olish zarur. Moliyaviy tahlilda foydali deb baholangan loyiha o'zining salbiy ekologik yoki ijtimoiy oqibatlari tufayli iqtisodiy tahlilda foydasiz deb baholanishi mumkin.

Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifasi xo'jalik iqtisodiyotini o'rganish, uni yanada rivojlantirish, takomillashtirish, mavjud imkoniyotlardan to'liq foydalanish, erishilgan muvaffaqiyatlarni keng yoyish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarning sabablarini o'rganish hamda ularni imkoni boricha tugatishga yordam berishdan iborat.

Demak, biz bu kurs ishida loyiha tahlilining asosiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanmish iqtisodiy tahlilni amalga oshirib, aloqa korxonasining hisobot va reja ma'lumotlariga asosan uning xo'jalik foaliyatini tahlil qilamiz, uning iqtisodiy va moliyaviy quvvatini, ishlab chiqarish samaradorligini, asosiy va aylanma mablag'lar samaradorligini, shuningdek yutuq va kamchiliklarini aniqlaymiz. Bundan asosiy maqsad korxonaning bugungi holatiga baho berish, uning imkoniyatlarini saqlab qolish va yanada rivojlantirishdir.

Iqtisodiy tahlilning mazmuni va ahamiyati

Iqtisodiy tahlil loyihaning ham homiylariga ham boshqalarga ta'sirini o'rgangan holda loyiha jamiyat uchun qanchalik foydali ekanligini, uni amalga oshirish uchun jamiyat nuqtai nazaridan resurs ajratish qanchalik maqsadga muvofiqligi tekshiradi.

Daromadlarni va harajatlarni iqtisodiy tahlil resurslardan samaraliroq foydalanish maqsadida iqtisodiy tanlash muammosini qulay va tushunarli izohlash usulidir. Har bir mamlakat u yoki bu mahsulotni ko'p ishlab chiqara oladi. Lekin bir yo'la hamma mahsulotni ko'p ishlab chiqarib bo'lmaydi. Shu sababli resurslardan foydalanishning turli variantlaridan birini tanlashga to'g'ri keladi.

Minimal harajatlar bilan maksimal natijalarga erishishni ta'minlaydigan qilib investitsiyalashga erishgan mamlakatgina o'z resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlay oladi.

Iqtisodiy tahlil maqsadi loyiha bilan bog'liq barcha samaralarni ko'rib chiqish uchun umumiy asos yaratishdir. Bunga:

birinchidan, bozor bitimlaridan o'z aksini topadigan iqtisodiy o'zgaruvchilarni aniqlash (m-n, uy bahosi u joylashgan hudud sifatini-transport, maktab kabilarning yaqinligini, uy joy arxitekturasining urf bo'lgan turini, xonalar sonini aks ettiradi);

ikkinchidan, loyihaning turli belgilarini baholashga aholi munosabatini aniqlash uchun loyihaning foydali tomonlarini xarakterlovchi ko'rsatkichlariga pulda ifodalanmaydigan qiymatlarni kiritish;

uchinchidan, loyihalarni bevosita o'lchanadigan boshqa harajatlari hamda natijalarini taqqoslash imkonini beruvchi sxemalarni ishlab chiqish yo'li bilan erishiladi.

Bular asosida loyihadan olinadigan manfaat unga sarflangan harajatdan oshish-oshmasligi to'g'risida murakkab qarorga kelinadi. Bunda manfaat (daromad) va harajatlar yagona o'lchov birligida ifodalanadi.

Loyihani qabul qilish loyiha bo'yicha iste'mol qilinadigan resurslardan foydalanish borasidagi muqobil variantlardan hech biri mamlakat oldida turgan vazifalar nuqtai nazaridan bundan yuqoriroq natija bermasligini anglatadi.

Daromadlar va harajatlar tahlili quyidagi tadbirlarni o'tkazishdan iborat:

- loyiha maqsadlarini aniqlash;
- loyihani baholash sxemasini aniqlash;
- loyiha natijalariga talabni prognoz qilish;
- daromadlar va harajatlarni o'lchash;
- rentabellik ko'rsatkichlarini baholash;
- ta'sirchanlikni va xavf (qaltislik) darajasini tahlil qilish.

Loyiha maqsadlari uni moliyalashtiruvchi tashkilotning operativ vazifalarini aks ettiradi. Masalan, transport sohasi bo'yicha loyiha maqsadi transport qatnovi samaradorligini ta'minlash sanoat loyihasining maqsadi esa ma'lum turdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'lishi mumkin.

Muqobil variantlarni ko'rib chiqish loyihani tayyorlash va uni ishlab chiqishning muhim qismi bo'lib hisoblanadi. Texnik, muqobil variantlar (ya'ni yoqilg'i uchun yo ko'mir, yoki gazni qo'llash, temir yo'lni uzaytirish, yoki yangi avtomobil shossesini qurish)ni bir-biri bilan taqqoslash va eng maqbulini tanlab olish kerak.

Agar hamma variantlar miqdor va sifat jihatdan bir xil natija bersa, ham investitsiya ham ekspluatatsiya harajatlari hisobga olganda eng kam harajat talab etiladigan loyiha tanlanadi.

Iqtisodiy tahlil sxemasi turliga bo'lishi mumkin. Bunda loyiha maqsadlariga salbiy ta'sir etuvchi hamma narsa harajatlarga, ijobiy ta'sir etuvchi hamma narsa daromadlarga kiritiladi.

Loyiha tahlili bu daromad va harajatlarni resurslardan foydalanishning boshqa variantlari bo'yicha erishilishi mumkin bo'lgan daromad va harajatlardan qiyoslaydi. Ko'pincha loyihasiz va loyiha bilan degan sxema qo'llaniladi.

Jamiyat nuqtai nazaridan qaraganda loyiha mahsulotini sotish yoki resurslarini sotib olish baholari doim ham harajatlardan va daromadlarning maqbul darajasini ko'rsata olmaydi. Masalan, baholar ularga soliq to'lashga ketgan harajatlardan qo'shib yuborilishi natijasida oshirib yuborilishi, yoki davlat subsidiyasi ta'sirida pasaytirib yuborilishi mumkin. Iqtisodiy tahlil uchun, ikki yoqlama hisoblashga yo'l qo'ymaslik maqsadida, baholarni bu elementlardan tozalash kerak.

Loyiha harajatlari va manfaatlarini umumjamiyat nuqtai nazaridan baholash, loyiha bilan bo'lib barcha samaralarni ko'rib chiqish uchun umumiy asos yaratish iqtisodiy tahlilning mohiyatini tashkil etadi. Iqtisodiy tahlilda moliyaviy tahlildan farqli o'laroq yashirin baholar qo'llaniladi, kapital harajatlardan bir martalik harajat summasi sifatida hisobga olinadi, diskont stavkasi sifatida investitsiya sarflashning muqobil variantlari bo'yicha eng yuqori daromadlilik darajasi olinadi, soliq to'lovlari harajat sifatida, subsidiyalar esa daromad sifatida hisobga olinmaydi.

Loyihani qabul qilish loyiha bo'yicha iste'mol qilinadigan resurslardan foydalanish borasidagi, muqobil variantlardan hech biri mamlakat oldida turgan vazifalar nuqtai nazaridan bunday yuqoriroq natija bermasligini anglatadi. Daromadlar va harajatlardan tahlili loyiha maqsadlarini aniqlashni, loyihani baholash sxemasini aniqlashni, loyiha natijalarini prognoz qilishni, daromad va harajatlarni o'lchashni, rentabellik ko'rsatkichlarini baholashni, ta'sirchanlik va qaltislik darajasini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Yashirin baholar soliqlar va subsidiyalardan tozalangan baholar bo'lib, ularni aniqlashda ichki bozorda baholar yuqorida aytilgan omillar bo'lmagan paytda qanday bo'lar edi degan shartga asoslanadi.

Yashirin baholarni aniqlashning eng oddiy uslubi jahon baholarini olib, bir necha uslublarini qo'llagan holda mamlakat valyutasida (so'mda) qayta hisoblab chiqishdir.

Loyihalarni doim ham miqdoriy ifodalash mumkin bo'lmagan hollarda foyda - manfaatlar minimumini olish ehtimolini tahlil qilish, eng kam harajatlar uslubi kabi uslublar qo'llaniladi.

Loyiha manfaati iste'mol tejami sifatida namoyon bo'ladi.

Iste'mol tejami - iste'molchilar tovarlar va xizmatlar uchun to'lashga tayyor bo'lgan summa - haqiqatda sarflangan summa. Iste'mol tejami loyiha natijasida baholar arzonlashgan paytda paydo bo'ladi.

Iqtisodiy tahlilda hisobga olinishi shart bo'lgan manfaat va harajatlarning yana bir ko'rinishi, bu tashqi samaralardir.

Tashqi manfaatlarga transport tizimi yaxshilanishi natijasida ishchi kuchi harakatchanligi kuchayishini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Loyihaning loyiha doirasida harajatlarga ham manfaatlarga ham kirmaydigan, shu tufayli moliyaviy hujjatlarida aks etmaydigan natijalari tashqi samaralar deb ataladi. Ammo bunday samaralar jamiyatning boshqa a'zolariga salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatsa, yoki mamlakat oldida turgan maqsadlarga erishishga xizmat qilsa ularning iqtisodiy tahlilda hisobga olish zarur.

Yangi texnologiyalarni qo'llash uchun bir loyiha bo'yicha uskunalarni import qilish ikkinchi loyiha uchun bu jarayonlarni arzon va oson kechishiga olib kelishi mumkin. Bunga birinchi loyihada ishtirok etgan mutahassislarni jalb etish orqali erishiladi. Tashqi manfaatlarga shuningdek ta'lim darajasi ortishi natijasida tug'ilish suratlarining pasayishini, transport tizimining rivojlanishi natijasida ishchi kuchi harakatchanligining kuchayishini va hokazolarni misol qilib keltirishi mumkin.

Korxonalarining xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish uchun asos qilib olingan quyidagi tamoyillar mavjud:

1. Ob'ektning holatini dastlabki iqtisodiy nazariya jihatidan tahlil qilishning zarurligi, o'rganiladigan hodisalarning mohiyati va bir-biriga o'zaro bog'liqligi.

2. Tahlilning kompleks xarakterga ega ekanligi hamda o'zaro bir-biriga uzviy ravishda bog'liq tahliliy ko'rsatkichlar tizimining qo'llanishi.

3. Iqtisodiy ma'lumotlarni tahliliy jihatdan qayta ishlash jarayonida o'rganiladigan hodisalarni guruhlashtirish va ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni miqdor va sifat belgilariga qarab turkumlash.

4.Korxonalar faoliyatini tahlil qilishda taqqoslash usulining ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashdagi ahamiyati.

5.Tahlil natijalari asosida ilg'or tajribalarni keng yoyish va ommani korxonalarni boshqarishga yana ham keng jalb etish.

6.Korxonalarni boshqarishda hisob va hisobotning hal qiluvchi roli, ularning iqtisodiy tahlilda asosiy axborot manbai ekanligi.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillar iqtisodiy tahlilning shakllanishiga va uning rivojlanish jarayoniga asos bo'ldi.

Iqtisodiy tahlil o'z mazmuni jihatidan turlichadir. Tahlilning ikki xil yo'nalishi mavjud: moliya - iqtisodiy va texnik - iqtisodiy. Moliya iqtisodiy tahlilda biznes-rejaning bajarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi (texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish) kabi omillar o'rganilmaydi. Texnik-iqtisodiy tahlilda esa texnika va texnologiya hamda ishlab chiqarishni tashkil etishga oid hamma masalalar har tomonlama va chuqur o'rganilib, uning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ko'rsatgan ta'siri ham aniqlanadi. Shuning uchun texnik - iqtisodiy tahlil korxonalardagi mavjud barcha rezervlarni to'la va har tomonlama aniqlashga imkon beradi.

Tahlil korxona va uning bo'linmalari faoliyatining hamma tomonlarini o'z ichiga olgan umumiy hamda ishning qandaydir biror tomoni yoki korxonaning bir necha bo'g'inlarini o'z ichiga olgan tanlanma (tematik) bo'ladi. Shuningdek, yirik masalalarga bag'ishlangan, korxonaning kundalik ishini o'rganishga va ichki imkoniyatlarini topishga qaratilgan tezkor tahlil bo'ladi.

Tekshiriladigan ob'ektlar va boshqaruv bo'g'inlariga qarab tahlil qilish quyidagilarga bo'linadi: ishchi o'rin, korxona ichida, korxona va tarmoqlar bo'yicha hamda tarmoqlararo. Tahlilda rezervlarni aniqlash ko'лами quyidagilardan iborat: ichki korxona va korxonalararo, tarmoq va tarmoqlararo rezervlar.

Qabul qilinadigan qarorlarning xarakteriga qarab, tahlil quyidagilarga bo'linadi: dastlabki, tezkor, yakuniy va istiqbolli. Bulardan, nazariy va amaliy jihatdan eng takomillashtirilgani - yakuniy tahlil hisoblanadi (korxonalarning yillik hisobotiga asosan).

Tahlil o'tkazish muddatlari (har kuni, bir oyda va bir yilda) yoki zarur bo'lishiga qarab ahyon-ahyonda olib borilishi mumkin.

Iqtisodiy tahlil o'tkazishning 3 bosqichi mavjud:

1) korxona faoliyatining umumiy iqtisodiy natijalarini ko'rib chiqishdan boshlanadi, chunki u ishning samaradorligini aniqlash, o'tgan davrlarga nisbatan o'zgarishlarni, shuningdek, bir korxona ishini boshqasi bilan taqqoslash hamda korxona faoliyatining boshqa tomonlarini bilish imkonini beradi;

2)biznes-rejaning bajarilish darajasiga ta'sir etuvchi eng muhim omillarni tekshirish natijasida ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash;

3) tahliliy tekshirishlar natijalarini umumlashtirish va shu asosda butun rezervlarni o'z ichiga olgan yig'ma rezervlarni hisoblash (to'plam rezervlar).

Iqtisodiy tahlilning o'ziga xos xususiyatlari

Iqtisodiy tahlil usulining eng muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) Xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil qilish va barcha omillarni tekshirishni muntazam va kompleks tarzda o'tkazishga yondashish, tahlil usulining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu o'rinda muntazam tahlilni kompleks tahlil bilan almashtirish aslo mumkin emas. Ob'ektni ierarxik usul (bo'ysunish tartibi) orqali boshqarish, masalan, sex korxonaning, korxona birlashmaning, birlashma tarmoqning bir qismi va hokazo sifatida o'rganish sistemali tahlilga misol bo'ladi.

Darvoqe, iqtisodiy tahlil va xo'jalik faoliyatini tahlil qilish bir gap emas. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish iqtisodiy tahlilning bir bo'lagi hisoblanadi. Iqtisodiy tahlil boshqarishning uchala darajasi bilan bog'liq (xalq xo'jaligi, tarmoq, korxona) xo'jalik faoliyatini tahlil qilish esa faqat uchinchi darajadagi boshqarish bilan bog'liq.

Xo'jalikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'lchash orqali biznes-rejaning bajarilishi, xo'jalik boshqarishning samaradorligi hamda korxona faoliyatidagi asosiy va hal qiluvchi masalalar aniqlanadi.

Tahlil natijalarini umumlashtirish orqali korxonaning xo'jalik yuritish borasidagi faoliyatiga baho beriladi hamda barcha rezervlarning yig'ma hisobi aniqlaniladi.

2) Tahlil usulining o'ziga xos xarakterli xususiyatlaridan biri - iqtisodiy ko'rsatkichlarning har tomonlama bir-birlari bilan sababiy bog'lanishida ekanligidir. Bu borada tahlilning vazifasi ana shu sabablarni aniqlashdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, xatto ayrim olingan iqtisodiy ko'rsatkichga bir qancha sabablar ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, bu sabablar harakatini aniqlash juda ham murakkabdir. Shu sababli asosiy va hal qiluvchi sabab va omillar ta'sirini aniqlash kerak. Shunday qilib, tahlilning dastlabki sharti xo'jalik faoliyatiga ta'sir etuvchi sabablarni iqtisodiy belgilariga qarab to'g'ri turkumlash zarur. Masalan, tovar mahsuloti hajmining o'sish sur'atiga ta'sir etuvchi omillar uch guruhga umumlashtiriladi:

1) Mehnat omillari. Bunga korxonaning ishchi kuchi bilan ta'minlanishi, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumdorligi kiradi.

2) Mehnat vositalari omiliga esa korxonaning asosiy fondlar bilan qay darajada ta'minlanganligi, ularning hajmi, strukturasi (tuzilishi), o'sish sur'atlari, texnik holati va ulardan foydalanishning samaradorlik darajasi singari masalalar kiradi.

3) Mehnat predmetlari omillari. Bularga korxonaning xom ashyo va asosiy materiallar bilan ta'minlanganligi, ulardan foydalanish, samaradorlik darajasi kabi masalalar kiradi. Yuqorida sanab o'tilgan omillar o'ziga xos mustaqil ma'noga ega bo'lishi bilan birga o'zaro bir-biri bilan uzviy ravishda bog'langandir. Binobarin, bu omillarning ta'sirini mexanik tarzda bir-biriga aslo qo'shib ham bo'lmaydi.

Chunonchi, mehnat unumdorligining o'sishi ishchilar malakasi va ish vaqtidan samarali foydalanishiga bog'liq (mehnat omillari). So'ngra, mehnat unumdorligi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasiga (mehnat qurollari omillari), hamda xom ashyo va materiallardan tejamkorlik va oqilona foydalanish (mehnat predmetlari omillari)ga bog'liq. O'z navbatida har bir guruh omillari tarkibiy qismlarga bo'linadi. Chunonchi, mehnat omillari-miqdor va sifat ko'rsatkichlaridan iborat. Bu yerda miqdor ko'rsatkichiga ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni kirs, sifat ko'rsatkichiga mehnat unumdorligi darajasining o'sishi misol bo'ladi. So'ngra bir ishchiga to'g'ri keladigan yillik ish unumdorligi:

- bir ishchi tomonidan bir yilda ishlangan o'rtacha kishi kunlariga;
- o'rtacha ish kunining uzunligiga;
- bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha soatlik ish unumiga bog'liq.

Ko'rinib turibdiki, bir ko'rsatkich ikkinchi bir ko'rsatkich bilan uzviy ravishda bog'lanishda bo'lib, o'ziga xos bir butun zanjirsimon shakl hosil qilar ekan.

Korxonalar faoliyatini tahlil qilishda turli maxsus usullar qo'llaniladi. Shulardan eng asosiylari quyidagilardir:

a) taqqoslash usuli - korxona faoliyatini tahlil qilishning eng asosiy usulidir, zero «barcha narsa taqqoslashda aniqlanadi».

Taqqoslash usullarini sanab o'tamiz:

- haqiqatdagi ko'rsatkichlarni biznes-reja darajasidagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslash natijasida biznes-rejaning bajarilish darajasi va sifati aniqlanadi;
- joriy yilda amaldagi ko'rsatkichlarni o'tgan davr hisoboti bilan taqqoslash natijasida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati aniqlanadi;
- ishlab chiqarishda eng mukammal namunaga ega bo'lgan korxonaning iqtisodiy modeli bilan taqqoslash. Bu o'rinda taqqoslash kompleks tarzda olib borilmaydi, balki ushbu korxonaning ayrim ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi.

Masalan, dastgohlardan foydalanish koeffitsienti yoki aytaylik, moddiy resurslardan foydalanish darajasi bo'yicha. Hozirgi vaqtda sanoat korxonalarida taqqoslama tahlil usulining bir ko'rinishi bo'lgan korxonalararo taqqoslama tahlil usuli katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu usul ilg'or ishlab chiqarish tajribalarini yoyish maqsadida aloqador bo'lgan turli korxonalar ishining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslab ko'rishga asoslanadi;

- korxona ishining yakuni, ilg'or texnik - iqtisodiy me'yorlar, o'tgan davr hisoboti ayrim davrlarda qilingan ishlarning eng yaxshi natijalari ushbu korxonaning ilg'or uchastkalaridagi ish natijalari, korxona hamda ushbu tarmoqdagi ilg'or ishchilarning ish natijalari bilan taqqoslash;

- ushbu korxonaning ko'rsatkichlari tarmoq bo'yicha aniqlangan o'rtacha ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi. Bunda korxonaning tarmoq miqyosida tutgan o'rni belgilanadi:

b) guruhlashtirish. U har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tekshirishning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Guruhlashtirish, ayniqsa, amaliy jihatdan ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Masalan, yuqorida ta'kidlanganidek tovar mahsuloti ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi omillarni guruhlashtirish (mehnat, mehnat vositalari va mehnat predmetlari omillari) misol bo'ladi.

Guruhlashtirish yana ushbu belgilarga ham qarab qo'llaniladi. Masalan, tashqi va ichki omillar, ijtimoiy va individual, tahlil qilinayotgan ob'yektga bog'liq hamda bog'liq bo'lmagan omillar va hokazo;

v) yetakchi halqani ajratib qo'yish usuli. Korxona faoliyati tahlil qilinayotgan vaqtda nihoyatda ko'p dalil va hodisalar uchraydiki, ularni to'la tahlil qilish imkoni yo'qligi uchun bu usuldan foydalaniladi. Masalan, yuqorida aytib o'tilganidek, mehnat unumdorligi darajasiga ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi, biroq ishlab chiqarish sharoitida faqat ikki yoki undan ko'p yetakchi omillar bilan cheklanish mumkin. Bularni hal qiluvchi ahamiyatga molik bo'lgan texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish darajalari bilan aniqlash kifoyadir. Bu usul u yoki bu hodisalarning sababini aniqlashdan tashqari texnikani hamda ishlab chiqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi;

g) mutlaq va nisbiy miqdorlar. Mutlaq miqdorlar orqali iqtisodiy ko'rsatkichlarning umumiy hajmi aniqlanadi. Nisbiy ko'rsatkichlar esa biznes-rejaning bajarish darajasini va ishlab chiqarishni rivojlantirish sur'atini belgilaydi. Mutlaq miqdor xo'jalik yuritishning samaradorligini har vaqt ham belgilamaydi. Masalan, ishlab chiqarish borasida barcha shart-sharoit nuqtai nazaridan teng bo'lgan 1-korxona, aytaylik, o'tgan yilga nisbatan haqiqatda 200 ming so'mga ko'p foyda oldi, 2-korxona 150 ming so'm. Bu raqamlardan 1-korxona yaxshi ishlaydi, degan xulosa chiqarish mumkin emas. Shuning uchun nisbiy ko'rsatkichlarga murojaat etish darkor. Bu yerda nisbiy ko'rsatkich rentabellik darajasi hisoblanadi.

Rentabellik darajasi foyda summasining asosiy ishlab chiqarish fondlari va (aylanma) fondlarining qiymatiga taqsimlanib, natijani 100 ga ko'paytirish bilan aniqlanadi. Demak, 1-korxona bo'yicha rentabellik darajasi - 30,5% tashkil etishi, 2-korxona bo'yicha - 34,5% ni. Shunday qilib, 2-korxona 1-korxonaga nisbatan samarali ishlagan, chunki u asosiy ishlab chiqarish fondlaridan yaxshi

foydalangan, aylanma mablag'larini tejab sarflash natijasida ularning aylanishini tezlashtirgan va hokazolar;

d) dinamika metodi. Muhim hodisalar, jarayonlarning har birini rivojlanishida, deb qarash kerakligini ko'rsatadi. Demak, bu tahlil qilish jarayonida korxona faoliyati rivojlanayotganda, deb qaraladi va bu bilan uning ishidagi ayrim o'zgarishlari ochiladi;

e) indekslar. Ular yordamida ma'lumotlarni qator yillar bo'yicha taqqoslash mumkin. Bu o'rinda bazali va zanjirsimon indekslardan foydalaniladi. Masalan, bazali indeksga mahsulot ishlab chiqarish sur'atining o'sishi misol bo'la oladi. Bunda har yili ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi solishtirib bo'ladigan bahoda o'tgan yillarda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan taqqoslanadi. Bazisli indeks bo'yicha hisob qilinganda taqqoslash uchun baza (asos) 100 ga teng, deb olinib, keyingi ko'rsatkichlar ana shu bazisli miqdorga foiz yoki koeffitsient hisobida olinadi.

j) bartaraf etish (eliminirovanie) usuli. Xo'jalik faoliyatiga yuqorida aytib o'tilgandek juda ko'p omillar ta'sir qiladi: asosiy, qo'shi-cha, tashqi va hokazo. Bu usul yordamida ushbu omillarni bir-biridan ajratib, alohida tahlil qilishga imkon beradi. Ushbu usul turli usullar bilan amalga oshiriladi, jumladan, zanjirli bog'lanish usuli bilan ham.

z) zanjirli bog'lanish usuli. Bu usulning mohiyati quyidagidan iborat: ya'ni hisob formulasi tarkibiga kirgan o'tgan yil doirasidagi ayrim olingan miqdoriy ko'rsatkichlarini aynan shu ko'rsatkichlarning haqiqatdagi darajasiga ketma-ket almashtiriladi. U yoki bu omilning ta'siri ketma-ket ayirish yo'li bilan aniqlanadi: ikkinchi hisobdan birinchi hisob ayriladi, uchinchi hisobdan ikkinchi hisob ayriladi va hokazo. Birinchi hisobda hamma ko'rsatkichlar o'tgan yil doirasida olinadi, so'nggi hisobda esa - haqiqatdagi bajarilishi.

Iqtisodiy tahlilning asosiy axborot manba'lari quyidagilar:

1. Biznes - reja ma'lumotlari.
2. Buxgalteriya hisobi va hisoboti.
3. Statistik hisob va hisobot.
4. Operativ (tezkor) hisob va hisobot.
5. Hisobdan tashqari ma'lumotlar.

Ushbu sanab o'tilgan ma'lumotlar ichida eng asosiysi buxgalteriya hisobi va hisobot hisoblanadi, chunki taxminan 70 foiz ma'lumotlarni iqtisodiy tahlil buxgalteriya hisobidan oladi. Tahlil qilish jarayonida yillik hisobotga yozilgan izohnoma ham har tomonlama ko'rib chiqiladi. Tahlil qilish jarayonida hisobdan tashqari ma'lumotlardan ham foydalanish katta samara beradi.

Korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlari va tahlili
Korxonaning ishlab chiqarish faoliyati ko'rsatkichlari

Ko'rsatichlar	O'tganyil	Hisobot yil	Farqi	
			+ -	%
Asosiy faoliyatdan daromad	1442800	1554000	111200	107,70
Shtat soni, ming kishi	4800	4900	100	102,08
Asosiy vositalarning o'rta yillik qiymati	630900	696800	65900	110,44
Aylanma mablag'lar, ming so'm	370500	395450	24950	106,73
Aholi soni, ming odam	174100	180300	6200	103,56
1. Ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	213900	240850	26950	112,59
1.1 Ish haqi fondi, ming so'm	70000	80500	10500	115
1.2 Ijtimoiy sug'urta ajratmalar, ming so'm	49400	56400	7000	114,17
1.3 Amortizatsiya, ming so'm	15500	18000	2500	116,12
1.4 Xom-ashyo, materiallar, ming so'm	7700	8400	700	109,09
1.5 Elektroenergiya, ming so'm	-	-		
1.6 Ta'mirlash fondi, ming so'm	15300	16500	1200	107,84
1.7 Boshqa ishlab chiqarish harajatlari, ming so'm	27100	28000	900	103,32
1.8 Transport harajatlari, ming so'm	28900	33050	4150	114,35
2. Davr harajatlari, ming so'm	208300	220960	12660	106,07
2.1 Ma'muriy boshqaruv harajatlari, ming so'm	116600	128260	11660	110
2.2 Operatsion harajatlar, ming so'm	87100	88000	900	101,03
2.3 Tannarxga kiritiladigan soliqlar, ming so'm	4600	4700	100	102,17
3. Moliyaviy harajatlar, ming so'm	57600	67400	9800	117,01
4. Operatsion harajatlar, ming so'm	-	-		
5. Moliyaviy daromad, ming so'm	-	-		
6. O'zgaruvchan harajatlar, ming so'm	118000	122500	4500	103,81
7. O'zgarmas harajatlar ming so'm	275200	275200	0	100,00

Foyda va rentabellik ko'rsatkichlariga omillarning ta'sirini aniqlash

Ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish darajasini, shuningdek korxona xizmatlar ko'rsatish faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlaridan biri foyda ko'rsatkichi hisoblanadi. Rentabellik darajasi - bu ishlab chiqarish fondlar birligiga to'g'ri keladigan foyda miqdori. Rentabellik o'sishi - bu ishlab chiqarish intensivligi ko'rsatkichi. Foyda va rentabellik korxona faoliyatining umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari va bularga ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi.

Birinchi o'rinda ma'lumotlar asosida foyda ko'rsatkichlarini aniqlash zarur:

Xizmatlar ko'rsatishdan yalpi foyda = Sof tushum – Xizmatlarning tannarxi

Xizmatlar ko'rsatishdan yalpi foyda = Daromad – Xizmatlarning tannarxi;

*Asosiy faoliyatdan foyda = Xizmatlar ko'rsatishdan yalpi foyda – Davr
harajatlari + Boshqa daromadlar – Boshqa harajatlar;*

*Umumxo'jalik faoliyatdan foyda = Asosiy faoliyatdan foyda + Moliyaviy
faoliyatdan foyda – Moliyaviy faoliyatdan zarar;*

*Daromad solig'i to'langunga qadar foyda = Umumxo'jalik faoliyatdan foyda +
Favqulotda foyda – Favqulotda zarar;*

*Sof foyda = Daromad soligi to'langunga qadar foyda – Daromad soligi –
Boshqa soliqlar*

Rentabellik darajasi hisobi yordamida korxona ishlab chiqarish faoliyatining samaradoligiga baho berish mumkin. Umumiy rentabellik darajasi quyidagicha hisoblanadi:

$$R = \frac{\text{Xizmatlarko'rsatishdan yalpi foyda}}{\text{Jami xo'jalik mablag'lari}} \cdot 100\%$$

yoki,

$$R = \frac{\text{Xizmatlar ko'rsatishdan yalpi foyda}}{\text{Sof tushum}} \cdot 100\%$$

Xizmatlarning tannarxi korxona faoliyatining umumiy ko'rsatkichlaridan biri. Bugungi kunda aloqa korxonalarida yiriklashtirilgan birlamchi ko'rsatkichi hisoblanadi - 100 sum daromadlarning tannarxi.

$$T = \frac{Eh}{D} \cdot 100$$

Bu yerda:

T - 100 sum daromadlarning tannarxi;

Eh - ekspluatasion harajatlari.

Mahsulot tannarxi - bu korxona faoliyatini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi va bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan ishlab chiqarish harajatlarini xarakterlaydi. Tannarx ishlab chiqarish vositalari iste'mol harajatlarini mehnatga haq to'lash hamda ishlab chiqarish va sotishning boshqa omillarining pul shaklidagi qiymatining bir qismini aks ettiradi. Tannarx korxonaning texnologiyasini va texnik jihozlanganligini, resurslarni ishlatishini, mehnat unumdorligidagi darajasini aks ettiradi.

Xo'jalik sub'ektlari faoliyatini kompleks baholash tizimida foyda muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqarish, investisiya, moliyaviy va tashqi iqtisodiy faoliyat natijalari foydada o'z aksini topadi. Foyda ishlab chiqarishni kengaytirish, byudjetning daromad qismini to'ldirish, korxonada ishlovchilarning moddiy jihatdan rag'batlantirishning asosiy manbai hisoblanadi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqarish faolligini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda puxta o'ylangan, birinchi navbatda soliq yukini kamaytirishga qaratilgan soliq siyosatining o'tkazilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foyda iqtisodiy kategoriya, uning umumiy mohiyati quyidagicha ifodalanadi:

- firma, kompaniya, korxonalarning qisqa va uzoq muddatli rivojlanishining asosiy manbai;
- kreditga layoqatliligini ifodalovchi ko'rsatkich;
- mulk egasining asosiy maqsadi;
- raqobatbardoshlik mezoni;
- ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish manbai.

Moliyaviy natijalar (foyda yoki zarar)ga oid ma'lumotlar 2-sonli shakl "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"da aks etgan.

Bu hisobot shaklining asosiy ko'rsatkichlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum.
2. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan ko'rilgan yalpi foyda.
3. Asosiy faoliyatning foydasi.
4. Moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromad (zarar).
5. Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari).
6. Favqulodda foyda (zarar).
7. Daromad (foyda) solig'i to'lagunga qadar foyda (zarar).
8. Sof foyda

Daromad va harajatlarni ushbu tarzda tarkiblanishi orqali:

- ishlab chiqarish harajatlarini boshqa harajatlardan farqlash va korxona ishlab chiqarish faoliyati samaradorligiga baho berish;
- moliyaviy, boshqaruv yuzasidan operatsion harajatlarni boshqa harajatlardan farqlash;
- korxona daromadlarini yuzaga kelishi yoki shakllanishi bo'yicha alohida tarkiblash (asosiy faoliyatdan, moliyaviy faoliyatdan hamda favqulotda holatlardan) imkoni tug'iladi.

“Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish harajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risida”gi nizomga muvofiq foydaning quyidagi shakllari mavjuddir.

1. “Mahsulot (ish, xizmat) larni sotishning yalpi foydasi.
2. Asosiy faoliyatning foydasi.
3. Umumxo'jalik faoliyatining foydasi.
4. Daromad (foyda) soliqni to'lagunga qadar foyda.
5. Hisobot davrining sof foydasi.

Foyda mulk shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar faoliyatini baholash ko'rsatkichi va rag'batlantirish manbaidir.

Shu tufayli faoliyatni ob'yektiv baholash uchun foyda tarkibi, tuzilishi, uni tashkil etuvchi elementlarni dinamik tarzda chuqur o'rganmoq lozim.

Foyda nafaqat mahsulot birligi uchun qilingan harajatlarni qisqartirish, balki mahsulot sotish hajmini belgilangan assortimentda ortishi, talab va ehtiyojni hisobga olgan holda yuqori rentabellikka ega mahsulot turlarini ko'proq ishlab chiqarishga erishishga ham bog'liq. Shu bois korxona faoliyatining barcha

tomonlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar bilan uzviy bog'langan holda foyda kompleks tarzda tahlil etilishi maqsadga muvofiq. Foyda miqdorini tahlil etishda gorizontaal va vertikal tahlil metodlari muhim o'rin tutadi.

Korxonaning rentabelligi tahlili. Korxonaning rentabelligi nisbiy ko'rsatkich bo'lib, korxona faoliyati samaradorlik darajasini ifodalaydi. Demak, korxonalar faoliyatini baholashda asosiy, sifatli ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Rentabellik darajasi korxonalar faoliyatida bajarilayotgan vazifalarni oldindan aniqlaydi. Bunday vazifalar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- rentabellik ko'rsatkichi korxonalar faoliyatiga sarflangan sarmoyalarni, o'zini o'zi qoplashini aniqlaydi. Korxonalar o'zini o'zi qoplash uchun ularning faoliyatida rentabellik 12-14 % dan kam bo'lmasligi kerak.

Rentabellik sanoat korxonalari faoliyatining samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, xo'jalik faoliyati natijalarini to'la va har tomonlama tavsiflab beradi. Rentabel korxonalar hamma harajatlarini o'z daromadlari bilan qoplaydilar va sanoat korxonasi hamda butun xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun qo'shimcha foyda yaratadilar. To'la xo'jalik hisobida ishlayotgan sanoat korxonalari o'zlari hosil qilgan foyda hisobiga ishlab chiqarishni kengaytirish, ijtimoiy-madaniy tadbirlar, xodimlarini moddiy rag'batlantirish uchun mablag' sarflaydilar. Bu o'rinda e'tiborda tutish kerakki, korxonalar xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tomondan mustahkam, qudratli qilishga faqat rentabellikni o'stirish bilangina erishib bo'lmaydi. Buning uchun korxonalarni ixtisoslashtirish, ularning faoliyati aholi va xalq xo'jaligi talablarini qondirishini ko'zda tutgan holda olib borilishi, hamma xodimlarning asosiy diqqatini korxona ichki imkoniyatlaridan foydalanib, rentabellikni oshirishga qaratish talab qilinadi.

Iqtisodiy tahlilda rentabellik darajasini bir qancha usullar orqali aniqlash mumkin.

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan foyda sanoat korxonalarining ish samaradorligini har tomonlama ifodalay olmaydi, chunki foyda summasi faqat harajatlarga emas, balki mahsulot hajmiga ham bog'liqdir. Shu sababli foydaning mutlaq miqdori bilan bir qatorda korxona faoliyatini va ish samaradorligini har tomonlama ifodalovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri rentabellik darajasi hisoblanadi. Rentabellik darajasi korxona bo'yicha harajatalardan, asosiy va aylanma mablag'lardan qanday foydalanilganligini aniqlash imkonini beradi. Uning mohiyati ham ana shunda.

Korxona xo'jalik faoliyatining samaradorlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- korxona ishlab chiqarish faoliyati rentabelligi;
- sotilgan mahsulot rentabelligi;
- asosiy vositalar rentabelligi;
- aylanma mablag'lar rentabelligi;
- nomoddiy aktivlar rentabelligi;
- o'z mablag'lari rentabelligi;
- chetdan jalb qilingan mablag'lar rentabelligi;
- ishlab chiqarish fondlari rentabelligi;
- aktivlar bo'yicha rentabellik darajasi.

a) Rentabellik darajasi=(Xizmat ko'r. yalpi foyda/Jami xo'j.mab)*100%

Jami xo'j.mab=Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati+Aylanma mablag'lar

O'tgan yili: Jami xo'j.mab=630900+370500=1001400 ming so'm;

Hisobot yil: Jami xo'j.mab=696800+395450=1092250 ming so'm.

Rentabellik:

O'tgan yili: $R=988433,3/1001400*100=98,70515\%$;

Hisobot yil: $R=1054150/1092250*100=96,511788\%$;

Farqi: 2,222132%

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi	
			Absolyut	Foiz
1	2	3	4=3-2	5=3/2*100
Jami xo'jalik mablag'lari, ming so'm	1001400	1092250	90850	109,0722988
Rentabellik darajasi, %	98,70	96,51	- 2,19	97,77

b) Rentabellik=(Xizmatlar ko'rsatishdan yalpi foyda/Sof tushum)*100%

O'tgan yili: $R=988433,3/1202333,33*100=82,20\%$

Hisobot yil: $R=1054150/1295000*100=81,40\%$

Farqi: 0,98%

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi	
			Absolyut	Foiz
1	2	3	4=3-2	5=3/2*100
Sof tushum, ming so'm	1202333,33	1295000	92666,6667	107,7072359
Rentabellik darajasi, %	82,20	81,40	-0,80	99,01

Rentabellik darajasini bilish korxona faoliyati uchun juda zarur hisoblanadi. Rentabellik darajasini bilishning ikki xil ko'rinishi mavjuddir: jami xo'jalik mablag'lari bo'yicha va sof tushum bo'yicha. Jami xo'jalik mablag'lari bo'yicha rentabellik o'tgan yilda 98,70 % ni, hisobot yilda esa 96,51 % ni, ya'ni absolyut qiymatda 2,19, foizda esa 2,22 % ga pasaygan. Bu ko'rsatkichning hisobot yilda pasayishini asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati hamda aylanma mablag'lar qiymatini hisobot yilda oshgani bilan izohlaymiz. Sof tushum bo'yicha rentabellik bo'lsa o'tgan yili ham hisobot yilda ham bir-biriga yaqin ko'rsatkich ko'rsatgan. Hisobot yilda xizmatlar ko'rsatishdan yalpi foyda oshgan va o'z o'rnida sof tushum ham oshgan. Rentabellik ko'rsatkichlari yuqori darajada bo'lishi, korxona faoliyati yaxshi ekanligidan dalolat beradi.

$$100 \text{ so'm daromadning tannarxi} = \frac{\text{Ekspluatatsion harajatlar}}{D} \cdot 100\%$$

$$\text{Ekspluatatsion harajatlar} = \text{Tannarx} + \text{Davir harajatlari}$$

Ekspluatatsion harajatlar:

O'tgan yili: $213900 + 208300 = 422200$ ming so'm;

Hisobot yili: $240850 + 220960 = 461810$ ming so'm;

Farqi: 39610 ming so'm.

100 so'm daromadning tannarxi:

O'tgan yili: $422200 / 1202333,33 \cdot 100 = 35,11\%$;

Hisobot yili: $461810 / 1295000 \cdot 100 = 35,74\%$;

Farqi: 1,79%

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi	
			Absolyut	Foiz
Tannarx, ming so'm	213900	240850	26950	112,59
Davir harajatlari, ming so'm	208300	220960	12660	106,07
Ekspluatatsion harajatlar, ming so'm	422200	461810	39610	109,38
Daromad	1202333,33	1295000	92666,66	107,70
100 so'm daromadning tannarxi, so'm	35,11	35,74	0,63	101,79

100 so'm daromadning tannarxini bilish ham korxona faoliyatining bir qancha ko'rsatkichlarini aniqlashda ishlatiladi va bu ko'rsatkich bizda o'tgan yili 35,11 so'm ni hisobot yilda esa 35,74 so'mni tashkil etgan. Hisobot yilda bu ko'rsatkichning oshishiga tannarxning 12,6% ga va davir harajatlarning 6,07% ga

oshgani sabab bo'lgan. Ularning farqi absolyut qiymatda o'tgan yilga nisbatan 0,63 so'mni, foizda 1,79% ni tashkil etgan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish kishilar hayot faoliyatining barcha jabhalarida, birinchi navbatda, ularning mehnat sohasiga sezilarli o'zgarishlar kiritadi. Ishchining mehnat vositalariga bo'lgan munosabat tubdan o'zgaradi. Xususiylashtirish va aksionerlashtirish jarayonida ishlab chiqarish jamoasining har bir a'zosi aksiya egasi bo'lishi, o'z korxonasining xo'jayini bo'lishi, o'z korxonasini samarali ishlashidan, kengayishidan va zamonaviylashuvidan bevosita manfaatdor bo'lishi mumkin. Aloqa vositalarining texnik mukammallashuvi va rivojlanishini, ishlab chiqarish samaradroligining o'sishi va aloqa vositalari ishining ishonchliligini va sifatini yaxshilash muhim darajada aloqa xodimlarining malakasiga bog'liq. Ilmiy texnik taraqqiyot tarmoq xodimlarining kasbiy tuzilishiga ta'sir etadi. Bajarilayotgan vazifaga bog'liq holda aloqa korxonalarining asosiy faoliyatidagi xodimlari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish bilan band bo'lgan mutaxassis va muhandis - texnik xodimlar (korxona rahbarlari, ularning o'rinbosarlari, buxgalterlar, iqtisodchilar va boshqalar);

- Aloqa xizmatlari ko'rsatish, pochta xizmatlari va matbuot nashrlarini yetkazishni amalga oshiruvchi aloqa xodimlari (telefonistlar, telegrafistlar, pochta tashuvchilar, operatorlar va boshqalar);

- Aloqa qurilmalari va uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish bilan band xodimlar (elektromontyorlar, kabelshilar, payvandchilar va boshqalar);

- Aloqa vositalariga texnik - eksplutasion xizmat ko'rsatuvshi mutahassislar (muhandislar, texniklar, elektromexaniklar).

Aloqa xodimlarining umumiy miqdorida ayollar ulushi yuqori hisoblanadi. Masalan, pochta, telegraf va xalqaro telefon stansiyasida 85 - 90 % ni, shahar va qishloq telefon stansiyasida 30 - 55 % ni ayollar tashkil etadi. Kabel va havo aloqa chiziqlari xizmat ko'rsatish bo'yicha korxonalarda 20 - 25 % ayollar tashkil etadi.

Hozirgi tez o'zgaruvchan bozor sharoitida aloqa xodimlarining malakasini to'xtovsiz oshirib borish alohida ahamiyatni kasb etadi. Aloqa va axborotlashtirish agentligi tarkibida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi mavjud. Hozirgi davrda boshqaruv xodimlari malakasini oshirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu ular tomonidan aloqa sohasidagi milliy va xorijiy fan va texnikaning yangi yutuqlarini, aloqa vositalarini ishlatish va tashkil etishning samarali usullarini qo'llash, aloqa iqtisodiyotining dolzarb muammolarini o'rganish imkonini beradi.

Xizmatlar tannarxi tahlilida harajatlarning alohida elementlari va moddalari bo'yicha ko'rib chiqish

Xizmatlar tannarxi tahlilida harajatlarning alohida elementlari va moddalari bo'yicha ko'rib chiqiladi. Harajatlar moddalar bo'yicha xizmatlar tannarxining o'zgarishi indeksi usuli asosida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\Delta I_j = \left(\frac{I_j}{I_d} - 1 \right) \cdot dj, \%$$

Bu yerda:

I_j – j harajat moddasining dinamika indeksi,

I_d – daromadning dinamika indeksi,

D_j – hisobot davridagi tannarxda j harajat moddasining ulushi.

100 so'm daromadlarning tannarxi kamayishi tufayli ekspluatatsion harajatlarning iqtisodi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Es = D_2 \cdot T_2 = D \cdot (T_2 - T_1), \text{so'm}$$

Bu yerda:

D_2 – hisobot davridagi daromad,

T_2 – hisobot davrda 100 so'm daromadlarning tannarxi o'zgarishi,

T_2, T_1 – hisobot va o'tkan yildagi 100 so'm daromadlarning tannarxi

Mahsulot tannarxi – bu korxona faoliyatini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi va bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan ishlab chiqarish harajatlari tavsiflaydi. Tannarx ishlab chiqarish vositalari iste'mol harajatlari mehnatga haq to'lash hamda ishlab chiqarish va sotishning boshqa omillarining pul shaklidagi qiymatining bir qismini aks ettiradi. tannarx korxonaning texnologiyasini va texnik jihozlanganligini, resurslarni ishlatilishini, mehnat unumdorligidagi darajasini aks ettiradi. Aloqa korxonasi iste'molchilarga xizmatlar ko'rsatishi uchun aniq bir ish hajmini bajarishi lozim, buni esa, o'z navbatida, zaruriy harajatlarsiz amalga oshirish mumkin emas. Bu harajatlar hisobot yoki ekspluatatsion harajatlar deb ataladi. Bundan tashqari, realizastiya qilingan mahsulot tannarxi ham shu ma'noni beradi. Xizmatlardan tannarx elementlari hisoblanadigan harajatlar mahsulot realizastiyasi bo'yicha "Harajatlar tarkibi haqidagi nizom" tomonidan aniqlanadi. Korxona amalga oshiradigan harajatlarning ba'zilar tannarx tarkibiga kiritilmaydi, chunki mavjud qonunlar bo'yicha ular boshqa manbalar hisobiga amalga oshirilishi lozim.

Bundan tashqari, korxona ish amaliyotida hisobot harajatlar ham uchraydi, ularni tannarx tarkibiga qo'shib bo'lmaydi. Masalan, kelgusi davr harajatlari, oldindan ijara badallarini to'lash yoki material zahiralarini sotib olish va boshqa harajatlar. Bunday harajatlar tannarxga ishlatish darajasi bo'yicha yoki aniq

harakat qilish muddati mobaynida kiritilishi lozim. Shunday qilib, ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi aniq vaqt intervalida harajatlardan kam bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtda butun bir soha bo'yicha va alohida korxonalar bo'yicha (100 so'mlik telefon so'zlashuvi, 100 so'mlik telegramma, 100 so'mlik xat jo'natmalari va hokazolar) - 100 so'm daromad tannarxi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichning iqtisodiy mazmuni - 100 so'm daromad olish uchun qancha hisobot harajatlar kerakligini aniqlashdir.

$$TN = E * 100 / D_{af} ;$$

Bu yerda:

TN- 100 so'm daromad tannarxi;

E - ekspluatatsion harajatlar (ko'rsatilayotgan xizmatlar tannarxi);

D_{af} - asosiy faoliyatdan daromad.

Xizmatlar tannarxi korxonaning ishlab chiqarish va sotish harajatlarini o'zida mujassamlaydi hamda harajatlar va daromadlarning asosiy o'lhagichi bo'lib xizmat qiladi. Tannarx tuzilmasi deganda, uning tarkibiga kiruvchi alohida elementlar va harajat qismlari orasidagi nisbat tushuniladi, ya'ni ekspluatatsion harajatlarning umumiy yig'indisida har bir harajat qismining ulushi ko'rsatiladi.

Tannarx tuzilmasi tarmoqning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Bu bog'liqlik tarmoqning texnika bilan jihozlanganligini, avtomatizatsiya darajasiga, yaratilayotgan mahsulot hajmiga, texnologik jarayonlar xarakteriga qarab aniqlanadi. Birlik ish hajmining tannarxi ushbu xususiyatlarni aniqlash va tannarxni kamaytirish zahiralarini topish imkonini beradi. Birlik ish hajmining tannarx tuzilmasining asosiy xususiyati bo'lib, jonli va ashyoviy mehnat harajatlarining nisbati xizmat qiladi. Bu nisbat mehnatning yoki fondning qay darajada zarur ekanligini ko'rsatadi. Mehnatni ko'p talab etadigan sohalarda tannarx tarkibida mehnatga haq to'lash asosiy ulushni egallaydi, fondni ko'p talab etadiganlarda esa amortizatsiya chegirmasi nisbatan yuqori bo'ladi. Tannarxni kamaytirish korxona iqtisodiyoti zaruriy omillaridan biri hisoblanadi. Aloqa korxonalari xizmatlari tannarxi muntazam tarzda kamayib boradi, biroq ularning har biri ishlatilmagan zahiraga ega bo'ladi.

Zahiralar aniq matematik hisoblar yoki iqtisodiy tahlil natijasida aniqlangan ishlab chiqarish harajatlarini ma'lum miqdorda tejash imkoniyatidir. Aloqa korxonalarida xizmatlar tannarxini kamaytirishning asosiy zahiralar **mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish fondlarini yaxshilash, elektr energiyasini tejash, ishlar hajmini oshirish** hisoblanadi.

Tannarxni kamaytirishga ta'sir etuvchi omillar uch guruhga ajratiladi:

1. Xalq xo'jaligidagi omillar. Korxonaga bog'liq bo'lmaydi; ularga materiallar va energiya ulgurji bahoni tarif stavkasining, lavozim okladini ijtimoiy sug'urtaga chegirmalarning, amortizatsiya me'yori va boshqalarning o'zgarishi.

2. Sohaviy omillar. Bu aloqa sohasiga bevosita bog'liq bo'lgan omillar hisoblanadi. Mamlakatda aloqa vositalarini rastional joylashtirish, aloqaning iqtisodiy tizimini yaratish, yangi texnika va texnologiyalarni kiritish va boshqalar sohaviy omillarga misol bo'ladi.

3. Ishlab chiqarishdagi omillar. Bu omillar bevosita korxona faoliyatiga bog'liqdir. Ularga quyidagilar kiradi: yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizastiyalashtirish va avtomatlashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish fondlarini yaxshilash va boshqalar.

Xizmat ko'rsatish tannarxi va davr harajatlari bo'yicha

Yechish:

Daromad dinamika indeksi= $1554000/1442800=1,07$

J harajat moddasining dinamika indeksi:

1. Ish haqi fondi: $80500/70000=1,15$
2. Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar: $56400/49400=1,14$
3. Amortizatsiya: $18000/15500=1,16$
4. Xomashyo: $8400/7700=1,09$
5. Ta'mirlash fondi: $16500/15300=1,07$
6. Boshqa harajatlar: $28000/27100=1,03$
7. Transport harajatlar: $33050/28900=1,14$
8. Ma'muriy boshqaruv harajatlari: $128260/116600=1,1$
9. Operatsion harajatlar: $88000/87100=1,01$
10. Tannarxga kiritilgan soliqlar: $4700/4600=1,02$

Hisobot davridagi tannarxda j harajat moddasining ulushi: J harajat hisobot yilda/tannarx*100

1. Ish haqi fondi: $80500/461810=17,43\%$
2. Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar: $56400/461810=12,21\%$
3. Amortizatsiya: $18000/461810=3,89\%$
4. Xomashyo: $8400/461810=1,81\%$
5. Ta'mirlash fondi: $16500/461810=3,57\%$
6. Boshqa harajatlar: $28000/461810=6,06\%$
7. Transport harajatlar: $33050/461810=7,15\%$
8. Ma'muriy boshqaruv harajatlari: $128260/461810=27,77\%$
9. Operatsion harajatlar: $88000/461810=19,05\%$
10. Tannarxga kiritilgan soliqlar: $4700/461810=1,01\%$

J harajat moddasi tufayli tannarx o'zgarishi= $(Ij/Id-1)*dj, \%$

Javoblari quyidagi jadvalda keltirilgan:

**100 so'm daromadlarning tannarxi kamayishi tufayli
ekspluatatsion harajatlarning iqtisodi**

	Hisobot davridagi daromad	O'tgan yildagi 100 so'm daromadlarning tannarxi	Hisobot yildagi 100 so'm daromadlarning tannarxi	100 so'm daromadlarning tannarxi kamayishi tufayli ekspluatatsion harajatlarning iqtisodi
Belgilanishi	D2	T1	T2	Es
Qiymati	1554000	35,11	35,66	-848405,98

Xizmat ko'rsatish tannarxi bo'yicha

	O'tgan yil	Hisobot yil	J harajat moddasining dynamika indeksi	Hisobot davridagi tannarxda j harajat moddasining ulushi	j harajat moddasi tufayli tannarx o'zgarishi %
1	2	3	4=3/2	5	6
			Ij	dj	ΔIj
Ish haqi fondi, ming so'm	70000	80500	1,15	17,43	1,18
Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, ming so'm	49400	56400	1,14	12,21	0,73
Amortizatsiya, ming so'm	15500	18000	1,16	3,89	0,30
Hom-ashyo va materiallar, ming so'm	7700	8400	1,09	1,81	0,02
Elektro-energiya, ming so'm	-	-			
Ta'mirlash fondi, ming so'm	15300	16500	1,07	3,57	0,005
Boshqa ishlab chiqarish harajatlari, ming so'm	27100	28000	1,03	6,06	-0,24
Transport harajatlari, ming so'm	28900	33050	1,14	7,15	0,44
Ma'muriy-boshqaruv harajatlari, ming so'm	116600	128260	1,1	27,77	0,59
Operatsion harajatlari, ming so'm	87100	88000	1,01	19,05	-1,18
Tannarxga kiritiladigan solliqlar, ming so'm	4600	4700	1,02	1,02	-0,05
Jami		461810		100	1,79
Assosiy faoliyatdan daromad, ming so'm	1442800	1554000	1,077		

Xizmatlar tannarxi tahlilida harajatlarning alohida elementlari va moddalari bo'yicha ko'rib chiqiladi. Shunga ko'ra j harajat moddasining dinamika indeksini topish uchun o'tgan yildagi qiymatini hisobot yildagi qiymatiga nisbatini olinadi. Hisobot davridagi tannarxda j harajat moddasining ulushi esa har bir moddani ekspluatatsion harajatlarga bo'lish orqali topiladi. Bu ko'rsatkich bizda foizda aks ettiriladi. Yuqoridagi ikki ko'rsatkichlardan foydalangan holda j harajat moddasi tufayli tannarx o'zgarishi ham hisoblanadi. Masalan, bunga ko'ra bizning misolimizda ish haqi fondi 1,18% ni tashkil etgan va jadvaldan har bir ko'rsatkichning o'zgarish dinamikasi hamda foiz ulushi aks ettirilgan.

Korxona zararsizlik tahlili

Ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatining foydaliligiga, moliyaviy mustahkamlik zahirasi asosida rejalashtirishga, inqiroz holatidan chiqib ketish optimal yo'lini tanlashga baho beriladi.

Zararsizlik tahlili marjinal foyda (F_m) hisobi usuliga asoslanadi (sof marja):

$$F_m = \text{Sof tushum} - \text{O'zgaruvchan harajatlari};$$

$$\text{Sof tushum} = \text{Daromad} - \text{Qo'shimcha qiymatlar solig'i}$$

Rentabellik nuqtasi - bu shunaqa sof tushum miqdori, qachon korxona zarar ham foyda ham ko'rmaydi:

$$R = \text{O'zgarmaydigan harajatlari} / (F_m / \text{Sof tushum}) = \text{O'z.m.digan haraj.} / U_f$$

Bu yerda,

U_f – sof tushumdagi marjinal foydaning ulushi.

Moliyaviy mustahkamlik zahirasi MMZ - bu summaga korxona foyda zonasidan chiqmagan holda sof tushum miqdorini kamaytirishi mumkin:

$$MMZ = \text{Sof tushum} - R, \text{ sum}$$

Yoki sof tushum miqdoriga nisbatan foizda-moliyaviy mustahkamlik MM:

$$MM = (\text{Sof tushum} - R) / \text{Sof tushum} * 100 \%$$

Sof tushum miqdorining har qanday o'zgarishi foyda ko'rsatkichining yanada kushliroq o'zgarishiga olib keladi - bu operatsion dastakning ta'siri:

$$\text{Natija (foyda, zarar)} = F_m - \text{O'zgarmaydigan harajatlari}$$

$$\text{Operatsion dastak ta'sirining kuchi} = F_m / \text{Natija}$$

Rentabellik nuqtasidan o'tilgan holda umumiy harajatlar summasida o'zgarmaydigan harajatlar ulushi va operatsion dastak ta'sirining kuchi kamayadi. Aks holda, o'zgarmaydigan harajatlar ulushining o'sishi operatsion dastak ta'sirini oshiradi.

Korxona mahsulotining ishlab chiqarish harajatlari – bu korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilingan barcha sarflari yigindisidir. Uning tarkibiga xom - ashyo va materiallari, amortizasiya, ish haqi va boshqa sarflar kiradi.

Ishlab chiqarish harajatlarini ikkiga bo'lib o'rganish mumkin : **bevosita ishlab chiqarish harajatlari va muomala harajatlari.** Ishlab chiqarish harajatlari deganda, mahsulotni bevosita ishlab chiqarish uchun qilinadigan barcha sarflar tushuniladi. Tovar birligining qiymatida ishlab chiqarish harajatlari faqat uning bir qismini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish harajatlari tovar qiymatidan foyda miqdoriga kam bo'ladi. Muomala harajatlari tushunchasi tovarlarni sotish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, shu tovarlarni ishlab chiqaruvchidan olib, iste'molchiga yetkazilguncha ketadigan sarflarga aytiladi. Ular ikki guruhga bo'linadi: **qo'shimcha muomala harajatlari va sof muomala harajatlari.** Tovarlarini o'rash, qadoqlash, saralash, transportga ortish, tashish va saqlash harajatlari qo'shimcha muomala harajatlari hisoblanadi. Muomala harajatlarining bu turlari ishlab chiqarish harajatlarining davomi hisoblanib, tovar qiymatiga kiradi va uning qiymatini oshiradi. Harajatlar *tovarlar sotilgandan keyin olinadigan pul tushumi summasidan to'planadi.* Sof muomala harajatlari sotuvchi maoshi, marketing, reklama va shu kabi harajatlardan iborat bo'ladi. Sof muomala *harajatlari tovar qiymatini oshirmaydi va ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tovarni sotgandan keyin olingan foyda hisobidan to'planadi.*

Ko'rsatkich	Belgisi	Formula	O'tgan yili	Hisobot yil	Farqi(Δ ,%)	
Sof tushum, ming so'm	St		1202333,4	1295000	92666,7	107,70
O'zgaruvchan harajat, ming so'm	O'x		118000	122500	4500	103,81
Marjinal foyda, ming so'm	Fm	$Fm=St-O'x$	1084333,3	1172500	88166,7	108,13
O'zgarmaydigan harajat, ming so'm	O'mx		275200	275200	0	100
Rentabellik nuqtasi, ming so'm	R	$R=O'mx/(Fm/St)$	305147,98	303952,23	-1195,74	99,60
Moliyaviy mustahkamlik zahirasi, ming so'm	MMZ	$MMZ=St-R$	897185,31	991047,76	93862,44	110,46
Moliyaviy mustahkamlik, %	MM	$MM=(St-R)/St*100\%$	74,62	76,52	1,90	102,55
Natija, ming so'm	N	$N=Fm-O'mx$	809133,3	897300	88166,7	110,89
Operatsion dastak kuchi	ODK	Fm/N	1,33	1,30	-0,03	97,50

Korxonaning zararsizlik tahlilini o'tkazishga, ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatining foydaliligiga, moliyaviy mustahkamlik zahirasi asosida rejalashtirishga, inqirozlikdan chiqib ketish optimal yo'lini tanlashiga baho beradigan bo'lsak, sof tushum 92666,7 ming so'm yoki 7,7% ga oshgan. Marjinal foyda esa 88166,7 ming so'mga oshgan. Bunday natijani hisobot yilida sof tushumning ortishi hamda o'zgaruvchan harajatlarning keskin ortishiga yo'l qo'yilmagani bilan izohlaymiz.

Korxonaning rentabellik nuqtasi 1195,74 ming so'mga pasaygan. Bu ko'rsatkich orqali korxona zarar ko'rmaslik uchun qancha daromad ko'rishi kerakligini bilib olishi mumkin. Rentabellik nuqtasida foyda bo'lmaydi, ya'ni korxonaning harajatlari bilan daromadlari teng bo'ladi. Bu ko'rsatkichning ortishi korxona uchun salbiy holat hisoblanadi. Demak, bizning holatda bu ijobiy ko'rsatkichdir.

Korxonaning moliyaviy mustahkamlik zahirasi ham 93862,44 ming so'm (10,5%) ga oshgan. Bunga asosiy sabab etib, korxonaning buxgalteriya ishlarini, moliya va hisob kitoblarni yaxshi bajarganligini aytishimiz mumkin. Moliyaviy mustahkamlik zahirasi ko'rsatkichi orqali korxona o'z daromadini qanchagacha tushira olishi mumkinligini bilib olishi mumkin. Moliyaviy mustahkamlik

ko'rsatkichi ham shu vazifani bajaradi. Bunda faqat daromadni qanchagacha tushira olishimiz mumkinligini bilishimiz mumkin. Korxona o'tgan yilda o'z daromadini 897185,31 ga, hisobot yilda esa 991047,76 gacha tushira olishi mumkin.

Korxonaning qanday ishlaganini bilishimiz uchun uning marjinal foydasidan o'zgarmas harajatlarni olish kifoya. Bu ko'rsatkich bizda o'tgan yili 809133,3 ni, hisobot yilda esa 897300 ni tashkil etgan. Ular orasidagi absolyut farq esa 88166,7 ga ko'paygan.

Operatsion dastak kuchi orqali korxona daromadlari orqali natijalarini reja qiladi va shu orqali harakat qiladi. Operatsion dastak kuchi daromadni qancha oshirsak natijaning qanday o'zgarishini bildiradi.

Mahsulot tannarxi ko'rsatkichi umuman va ularning unsurlari va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha belgilangan biznes-rejaning bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillar batafsil tahlil qilinadi. Umumlashgan mehnat unumdorligi ko'rsatkichi (bir ishlovchiga to'g'ri keladigan yillik ish unumi) bir ishchiga to'g'ri keladigan yillik, kunlik va soatlik ish unumini o'z ichiga oladi.

Moliya-iqtisodiy tahlilga xos muhim xususiyatlardan biri - bu asosiy axborot olish manbalari Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan yagona hisobot shakllaridan qo'llanilish hisoblanadi. Shunday qilib, moliya-iqtisodiy tahlilning predmeti korxonalar xo'jalik faoliyatining turli tomonlari, xo'jalik yuritish jarayoni, iqtisodiy ko'rsatkichlarning bir-biri bilan sababiy bog'lanishi hisoblanadi. Shu bilan birga korxona tahlilning ob'yekti ham hisoblanib, ularning faoliyati yuqori tashkilot, moliya-kredit va statistika organlari tomonidan o'rganiladi.

Masalan, moliya organlari korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda asosiy e'tiborni biznes-rejaning bajarilishi, aylanma mablag'larining holati, foyda bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi, davlat byudjetiga tushadigan to'lov majburiyatlarining bajarilishiga qaratadilar.

Kredit tizimi esa korxonalar o'z aylanma mablag'lari holatini, olingan kreditning tovar-moddiy boyliklar bilan ta'minlanganligini, to'lov intizomining bajarilishi kabi masalalarga qaratadi.

O'rganiladigan masalalarga qarab moliya-iqtisodiy tahlil to'la yoki tanlanma xarakterga ega bo'lishi mumkin. Moliya-iqtisodiy tahlilning o'tkazish muddatlari kunlik, xaftalik, dekadalik, oylik, kvartallik, yillik bo'ladi. Moliya-iqtisodiy tahlilning turlari: dastlabki, tezkor va joriy tahlildan iborat.

Xulosa va tavsiyalar

Korxona iqtisodiy holatini tahlil qilish, korxona moliyaviy samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Korxonaning iqtisodiy holatini tahlil qilish korxonaning ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasini aniqlashda yordam beradi, foydalanilmagan resurslarni korxonaning kelgusida rivojlanishi, ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Bugungi kunda aloqa va axborot-kommunikatsiya sohasidagi islohotlarni borishi avvalo davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan davlat dasturlarining bajarilishi ta'minlash bo'yicha ishlar olib borildi va buning natijasida bir qator ko'rsatkichlarga erishildi.

Xizmat ko'rsatish sohasi ham yuqori sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Aholiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi yuqori suratlar bilan o'smoqda, ushbu sohaning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi esa bugungi kunda 52 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Bu jarayonda xizmatlarning yuqori texnologiyalarga asoslangan va bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan turlari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Jumladan, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, kompyuter dasturlash xizmatlari ham kun sayin o'sib bormoqda. "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi tashkil etilganidan buyon bu yerda 12 ta korxona qurilib, foydalanishga topshirildi. Ular tomonidan qariyb 80 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Mobil va statsionar telefonlar, modemlar va internet uchun qo'shimcha moslamalar ishlab chiqarish bo'yicha korxonalar tashkil etish kabi yuqori texnologiyalar asosidagi yana yettita loyiha amalga oshirish bosqichida turibdi. Bu o'sish darajasi ushbu hisobot yilida bundanda yuqori bo'lishi kutilayapti.

Xulosa qilishdan oldin shuni aytib o'tish kerakki, korxona rentabilligi ko'rsatkichlari uning stabil, ya'ni umumiy holda bir maromda faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi. Agar korxona faoliyatida xatoliklarga yo'l qo'yilmasa, buxgalteriya hisobi yaxshi yo'lga qo'yilsa, boshqaruv qarorlari to'g'ri qabul qilinsa, korxona faoliyati yaxshi ko'rsatkichlarni ko'rsatishda davom etaveradi. Ammo shunga qaramay, korxona faoliyatida ba'zi kamchiliklar mavjud. Ularni quyidagicha bayon qilsak, korxonada o'tgan yilga nisbatan hisobot yilda daromad ko'p bo'lgan, lekin sof foyda kam bo'lgan. Bunga davr xarajatlari va moliyaviy faoliyatdan zarar sabab bo'lgan. Korxona ana shu ko'rsatkichlarga katta e'tiborini qaratishi kerak. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'tgan yilga nisbatan hisobot yilda mehnat unumdorligi sezilarli darajada oshgan va bu ko'rsatkichni yanada yaxshilash uchun korxonada imkoniyatlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi-T. «O'zbekiston»,1993.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi - T. «O'zbekiston»,1993.
3. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni - T. «O'zbekiston»,1996.
4. I.Karimov Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish - barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. - T. «O'zbekiston» 2007.
5. I.Karimov O'zbekiston XXI asrga intilmoqda - T. «O'zbekiston» 1999.
6. I.Karimov Islohotlar strategiyasi - mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdir «O'zbekiston ovozi» gazetasi. 2003 yil 18 fevral.
7. YO.Abdullaev Iqtisodiy tahlil: 100 savol va javob - T.»Mehnat»,2001.
8. YO.Abdullaev, A.Ibrohimov, M.Rahimov Iqtisodiy tahlil. - T. «Mehnat»,2001
9. Vohobov A.V., Ibragimov A.T, Moliyaviy tahlil. - T. «Sharq» 2002.
10. Abdukarimov M.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish. - T. «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» 1999.
11. M.Tulahodjayeva Moliyaviy hisobotni va moliyaviy koeffitsientlarni tahlil qilish. - T. 1996.
12. Korakov I.I.Samborskiy V.I. Teoriya ekonomicheskogo analiza. - 1998.